




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

"TASDIQLAYMAN"

DTPI rektori

O.A.Ruziyev
2024 yil

**10.00.01 - O'ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI DASTURI VA BAHOLASH
MEZONI**

Denov – 2024

Mazkur dastur 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha qabul imtihoni o‘tkazish uchun tavsiya etiladigan savollar, ularga javob tayyorlashda e‘tiborga olish zarur bo‘lgan masalalar yuzasidan umumiy yo‘nalish bayonini o‘z ichiga oladi.

Tuzuvchilar:

Z.Suvonov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri,
Filologiya fanlari doktori (DcS)

R.G.Xidirov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,

Taqrizchilar: TerDU, fil.fan.dok. professor B.Umurqulov

Ushbu dastur va baholash mezonı “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasining 2024-yil ___-oktabrdagi ___-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri  **Z.Suvonov**

Ushbu dastur va baholash mezonı Filologiya fakulteti kengashining 2024-yil 24-oktabrdagi 3-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va institut o‘quv uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet dekani  **Sh.Amankulov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘quv uslubiy kengashining 2024-yil ___-oktabrdagi ___-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i  **B.Pirimqulov**

Imtixon dasturi tasdiq va foydalanish uchun tavsiya etiladi.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  **S.N. Allayarova**

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonida o‘zbek tilining nufuzini yanada yuksaltirish, o‘zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqish, globallashtirish sharoitida o‘zbek tilidan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va o‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha yangi avlod kadrlarini tayyorlash, o‘zbek adabiyoti muammolarini tadqiq etishni yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi qo‘yilgan. Har bir fanning o‘qitish, o‘rganish va tadqiq etish metodologiyasi bo‘ladi.

Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mustaqillikka erishganidan keyin adabiyot tarixini va adabiy jarayonni sinfiylik nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan kommunistik mafkura o‘z kuchini yo‘qotdi. Endilikda o‘zbek adabiyoti tadqiqotchilari nafaqat mumtoz adabiyotimiz, balki zamonaviy adabiyotimiz tarixini ham milliylik va tarixiy haqqoniylik prinsiplari asosida o‘rganmoqdalar, tadqiq etmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» asarida va «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari va boshqa hujjatlarida o‘zbek tilini o‘rganishga doir muhim fikr va qarashlar olg‘a surilganki, ular o‘zbek tilshini o‘rganish va tadqiq etishda dasturulamal ahamiyatiga egadir.

Metodologik masalalar

O‘zbekistonning til sohasidagi siyosati, jamiyat hayotida o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi o‘mi va ahamiyati haqida. Respublikamiz Prezidentining o‘zbek tilining nufuzini oshirish, uni rivojlantirish borasida tilshunoslar, umuman, ziyolilar oldiga qo‘ygan vazifalari va ko‘rsatmalari. “Ona tili - bu millatning ruhi” iborasining mohiyati. Davlat tili, o‘zbek lotin alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlari. “Davlat tili” tushunchasi va davlat tilining jamiyatdagi o‘mi masalasi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni (1989-yil 21-oktabr, 1995-yil 25-dekabr), uning mohiyati, Qonunning jamiyat hayotidagi va o‘zbek tili rivojidagi ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni (1993-yil 2-sentabr, 1995-yil 6-may) ning mazmuni va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash” haqidagi qarori (1995-yil 24-avgust), imlo qoidalarini amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF- 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonidagi masalalar.

1-qism. O'zbek tili tarixi va dialektologiyasi

“O'zbek tili tarixi” kursi o'zbek tilining shakllanish, rivojlanish qonuniyatlari va buning o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalalarini, qadimiy turkiy til, eski o'zbek tili, o'zbek adabiy tili, ularning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek o'zbek adabiy tilining shakllanishi va boyishida, uning funksional uslublari hamda me'yorlari rivojida tarixiy yozma yodgorliklar tili, xalq lahja va shevalari hamda o'zbek folklori tilining o'zmi va ahamiyatini belgilash va baholashga yo'naltirilgan; ana shu shakllanish jarayonida o'zbek mumtoz adabiyoti tilining, ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozixon, Ogahiy va boshqalarning asarlari tilining ahamiyatini kursatishni maqsad qilib qo'ygan.

Shu bilan birga, o'zbek tili turkiy tillar orasida eng ko'p shevali tildir: unda qarluq qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub yuzlab shevalar mavjud. O'zbek dialektologiyasi (shevashunosligi) o'zbek tilshunosligining mustaqil yo'nalishi bulib, o'zbek shevalarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

O'zbek dialektologiyasi bo'yicha tuzilgan savollar imtihon topshiruvchi shaxsning o'zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari, uning tadqiqot ob'ekti, tadqiq usullari, o'zbek tili lahja va shevalarining lisoniy xususiyatlari yuzasidan bilim darajasini aniqlashni ko'zda tutadi.

2-qism. O'zbek tili tarixi

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi. “Qadimgi turkiy til”, “eski o'zbek tili”, “hozirgi o'zbek tili” tushunchalari haqida.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o'zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati. X-XI asrlarda O'rta Osiyo va Oltin O'rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o'zbek tiliga munosabati. XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o'zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.

Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari. Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug'atayn” asari va uning o'zbek tili rivojidagi o'zmi. “Muhokamatul-lug'atayn” - tillami qiyosiy o'rganish namunasi sifatida. XVI asr o'zbek adabiy tili rivojini o'rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.

XV-XIX asrlarda eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlarning o'zbek tili tarixini o'rganishdagi ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.

Eski o'zbek adabiy tilining funksional uslublari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti. O'zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo'lishi va shakllanishida o'sha davr matbuoti tilining o'zmi. O'zbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy tilning asosiy xususiyatlari. O'zbek tili tarixi masalalarining o'rganilishida xorij turkiyshunoslarining xizmatlari.

Eski o'zbek tilida unilar tizimi. Eski o'zbek tilida undoshlar tizimi. Eski o'zbek tilida singarmonizm.

Eski o'zbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari. Eski o'zbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari. Eski o'zbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari. Eski o'zbek tilida kishilik olmoshlari va ularning

turlanishi. Eski o'zbek tilida fe'l mayllari. Eski o'zbek tilida fe'l zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.

Eski o'zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o'zbek tilida gap bo'laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.

2-qism. Hozirgi o'zbek tili

“Hozirgi o'zbek tili” kursi bo'yicha tuzilgan dastur va savollar imtihon topshiruvchining hozirgi o'zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so'z yasalishi, morfologiyasi va sintaktik tuzilishi, grammatik kategoriyalari va ularning tasnifi, lug'aviy tizimi va uning tarkibi, boyish manbalari, imlosi va to'g'ri talaffuzi, uslubiyati va boshqalar haqidagi bilimlarini aniqlashni ko'zda tutadi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi murakkab tizim va qatlamlardan iborat bo'lib, so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llanib, muayyan sohalarida funksional jihatdan moslashgan, tarmoqlangan bo'ladi. Mana shunday sohalaridan biri ilm-fan sohasi bo'lib, unga xoslangan so'zlar terminlar hisoblanadi. Terminologiya bo'yicha tuzilgan savollarning maqsadi imtihon topshiruvchi shaxsning terminologiyasi, jumladan, o'zbek terminologiyasi bo'yicha bilim darajasini aniqlashdir. Ayniqsa, ilmiy- tadqiqot olib borayotgan shaxslarning ilmiy terminologiyaning mohiyatini, asosiy lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'z sohasida terminlarni to'g'ri qo'llay olishi nihoyatda muhimdir. Aksincha, terminlarni noto'g'ri qo'llash ilmiy tushunchalarni to'g'ri tushinishga halaqit beradi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik imlo va to'g'ri talaffuz sohalarini bo'yicha tuzilgan dastur-savollar haqida ham ayni shu fikrlarni aytish mumkin.

Til strukturasi. Lison va nutq. Lisoniy sath va lisoniy birliklar. Lisoniy sistema. Lisoniy tasnif. Lisoniy paradigma. Lisoniy munosabat. Lisoniy ziddiyat.

Fonetika-fonologiya. Fonema va tovush. O'zbek tili unli fonemalari va ularning tasnifi. O'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi. O'zbek nutqida qo'sh undoshlarning qo'llanishi. Fonetik o'zgarishlar va ularning fonologik asoslari.

Leksikologiya. Leksema va so'z. Tarixiylik jihatidan o'zbek tili leksikasi. O'zbek tilida tarixiy va eskirgan leksemalar. Qo'llanish doirasiga ko'ra hozirgi o'zbek tili leksikasi: dialektal, maxsus, jargon va boshqa turdagi leksemalar. O'zbek tili leksikasining faol va nafaol katlamlari. Leksemalarning nafaol zaxiraga o'tishi yoki eskirgan leksemalarning yangi ma'no kasb etishi. Ularni yuzaga keltiruvchi omillar. O'zbek tilining mustaqillik davri rivoji: neologizmlar.

Leksemaning shakl va ma'no munosabati. Sinonimiya va sinonimik qator. Antonimiya. Omonimiya. Paronimiya. Polisemiya va omonimiya munosabati. Giponimiya. Graduonimiya. Leksemaning o'z (to'g'ri) va ko'chma ma'nosi. Okkazional va uzual ma'no.

Nom ko'chish usullari va ko'chma ma'nolar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Vazifadoshlik.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologizm - terminologik birikma - erkin so'z birikmasi. Leksikologiya va leksikografiya. Leksikografiya turlari. Lugat turlari. Til korpusi. Giperleksikografiya.

Terminologiya. Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo'yiladigan asosiy talablar. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalariga, polisemiya munosabat. Terminlarni me'yorlash tamoyillari.

Terminologiya va purizm. Ilmiy terminologiya va xalq terminologiyasi. Terminologik lug'atlar va ularni tuzish prinsiplari.

Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki va tashki imkoniyatlari. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi: taraqqiyoti va muammolari. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me'yorlari. Hozirgi o'zbek tilida imlo tamoyillari. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek alifbosining xususiyatlari.

Onomastika. Onomastika sohasi va uning tadqiqot obyekti. Onomastika leksikologiyaning bo'limi sifatida. O'zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o'ziga xos xususiyatlari. Etnonimiya haqida tushuncha va o'zbek etnonimlari. Toponimika - tilshunoslikning bo'limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisoniy omillarning roli. O'zbek toponimiyasining o'rganilish darajasi. Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.

Morfemika. O'zbek tilida affiksial morfemalarning turlari. Qo'shma so'zlar va ularning so'z birikmalaridan asosiy farqlari.

O'zbek tilida lug'aviy va grammatik ma'no, ularning grammatik kategoriyalarga munosabati.

O'zbek tilida shakl yasovchi qo'shimchalar va ularning turlari. Lugaviy shakl yasovchilar.

Sintaktik shakl yasovchilar.

Derivatsiya. O'zbek tilida so'z yasash usullari. So'z yasash qo'llari. So'z yasashi va leksemalashuv. Diaxron va sinxron derivatsiya.

Morfologiya. O'zbek tilida so'z turkumlarining ajratilishi. So'zlarni turkumlarga ajratish asoslari. o'zbek tilida fe'lning grammatik kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi. O'zgalovchi kategoriya. Xarakter tarzi kategoriyasi. Fe'lda kesimlik kategoriyasining qo'llanishi.

O'ning grammatik kategoriyalari. Sifat va uning daraja kategoriyasi. Ravish va uning turlari. Sonning ma'noga ko'ra turlari. Olmosh va uning turlari. Inkor ifodalovchi vositalar va fe'lning bo'lishsizlik shakllari. Yordamchi fe'l va uning turlari. To'liqsiz fe'l.

Kesimlik kategoriyasi va uning tarkibiy qismlari. Shaxs-son kategoriyasi. Mayl kategoriyasi. Zamon kategoriyasi. Tasdik-inkor kategoriyasi.

O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari, ularning vazifaviy xususiyatlari. O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar: taklif- ishora, tasdik-inkor, modal va undovlar.

Sintaksis. O'zbek tilida sintaktik birliklarning turlari (so'z birikmasi, gap, matn) va ularning o'zaro munosabati. Sintaktik aloqa turlari. So'z birikmalari. Aniq va majhul tuzilmalar (faol va nafaol konstruksiyalar). So'z birikmasi qo'llari.

Sodda gap va uning lisoniy qo'llari. O'zbek tilida sodda gapni tasniflash asoslari. Gap turlari: darak so'roq buyruq gaplar; sodda va qo'shma gaplar; yig'iq

va yoyiq gaplar; tasdiq va inkor gaplar; to'liq va to'liqsiz gaplar, egali va egasiz gaplar.

Sodda gapning grammatik bo'linishi. Gap bo'laklari nazariyasi: bosh va ikkinchi darajali bo'laklar; gap va so'z kengaytiruvchilari; subyekt, predikat, ob'ekt tushunchalari.

Sodda gapning murakkablashuvi. O'zbek tilida uyushiq va ajratilgan bo'laklar. Undalma. Kirish va kiritma tuzilmalar.

Uyushgan gap tushunchasi va uning ajratilishi. Uyushgan gap o'zbek tilining milliy xususiyati sifatida.

Sodda gaplarda shakl va mazmun nomutanosibligi va uning tadqiqi. Sodda gapning aktual bo'linishi: aktualashtiruvchi vositalar. Sodda gaplarda so'z tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap va uning qo'llari. O'zbek tilida qo'shma gaplarni tasniflash asoslari. Qo'shma gap turlari.

Teng, tobe va mutanosib tarkibli qo'shma gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Bog'langan, bog'lovchisiz, ergash gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra turlari. Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari.

O'zga gap va uni ifodalash yo'llari. Punktatsiyasi. Punktatsiya tarixi va taraqqiyoti. Hozirgi o'zbek tilida punktatsiya muammolari.

O'zbek tilida murakkab sintaktik butunlik tushunchasi va uning ajratilishi. Matn va uning tadqiqi muammolari. Matn tahlili. Matnga antropotsentrik yondashuv. Nutq madaniyati. Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy me'yor tushunchasi. Adabiy me'yor turlari. Adabiy tilning lahja va shevalar bilan o'zaro munosabati. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.

Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati - tilshunoslik bo'limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot obyekti. Usulshunoslik (stilistika) sohasi va uning tadqiqot obyekti. O'zbek usulshunosligining o'rganilish darajasi. O'zbek tilining funksional usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy usulshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari. Lingvopoetika haqida tushuncha. Lugaviy stilistika.

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari uchun maxsus fanlardan da'vogarlarining bilimlarini baholash mezonlari

Ball	Bilim darajasi
1	2
86-100	Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan

	vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa.
71-85	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa.
60-70	Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-59	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa.

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100
O'tish bali	60

10.00.01.-"O'zbek tili" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish uchun savollar

1. Qadimgi turkiy til leksikasi.
2. Nomema va semema. Leksemaning semantik tarkibi.
3. Lisoniy munosabatlar sharhi (paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar).
4. Sintaksis va uning tadqiq manbai.
5. O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi.
6. Eski o'zbek tili manbalarida bog'langan qo'shma gaplar, ularning sintaktik-semantik xususiyatlari.
7. Graduonimiya va sinonimiya hodisalari.
8. Semalar mohiyatiga ko'ra necha xil? Atash semalari va ifoda semalarini to'liq izohlang.
9. Sintaktik birlikning ikki tomoni.LSQ tushunchasi.
10. Shevaga oid fonetik xususiyatlar.
11. Qadimgi turkiy manbalarning tasnifi, til xususiyatlari.
12. Lug'at va uning turlari. Maxsus filologik lug'atlar.
13. Derivatsiya. So'z yasash usullari.

14. Sintaktik birlikning ikki tomoni.LSQ tushunchasi.
15. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari
16. Morfema nima? Morfemika birligi masalasi. Leksema va morfema munosabati.
17. Lisoniy munosabatlar sharhi (paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar)
18. Valentlik nazariyasi. Valentlik haqida tushuncha. Valentlik turlari.
19. Shevalarda egalik qo'shimchalari.
20. Qadimgi turkiy tilda so'z yasalishi.
21. Gapning shakllanishida leksik omil va morfologik omil.
22. Shevalarni tadqiq etish muammolari
23. Frazologik va frazeologik omonimiya hodisalarini izohlang.
24. Unli va undosh fonemalar paradigmasi.
25. Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko'targan siymo.
26. Yasama so'zning leksemalashuvi. Lisoniy va nutqiy yasama so'z farqi?
27. Til, lison, me'yor va nutq munosabati.
28. Eski o'zbek adabiy tili rivojida Navoiygacha ijod qilgan turkiygo'y shoirlarning xizmatlari.
29. Kommunikativ bo'linmas gap.
30. Shevalarda taqlidiy so'zlar.
31. Orfoepiya va orfografiya munosabati. Orfografiya tamoyillari.
32. O'zbek tili tarixini davrlashtirish xususida o'zbek tilshunoslari dunyoqarashi.
33. Hosila ma'no (ko'chma ma'no) yuzaga kelishi. Metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.
34. Aktual bo'linish va kommunikativ bo'linmas gap.
35. Shevalarda taqlidiy so'zlar.
36. Qoraxoniylar davri adabiy tilining yuzaga kelish sabablari.
37. Dialektal so'zlarning semantik guruhlarini
38. Semalar mohiyatiga ko'ra necha xil? Atash semalari va ifoda semalarini to'liq izohlang.
39. Derivatsiya. So'z yasash usullari.
40. O'zbek tili leksikografiyasi. Umumiy filologik va umumiy ensiklopedik lug'atlar.
41. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilining grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishidagi o'zgarishlar.
42. Morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. (omomorfemalar), sinonimiya, antonimiya).
43. Lisoniy ziddiyat va uning tasnifi.
44. O'zbek shevalari sintaksisi.
45. SBda hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi so'z.
46. Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari.
47. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari.

48. Fonetika va fonologiya munosabati. Fonema va tovush.
49. Gapni shakllantirishda ohangning roli.
50. Transkripsiya muammolari
51. Qadimgi turkiy manbalarning tasnifi, til xususiyatlari.
52. Segment va supersegment birliklar.
53. Nomema va semema. Leksemaning semantik tarkibi (10).
54. Gapda shakl va mazmun munosabati
55. Shevalarda kelishik va egalik qo'shimchalari.
56. Morfemaning vazifasiga ko'ra turlari (misollar bilan izholang).
57. Sintaktik aloqa va sintaktik aloqani ta'minlovchi vosita.
58. Semalar mohiyatiga ko'ra necha xil? Atash semalari va ifoda semalarini to'liq izohlang.
59. Lisoniy munosabatlar sharhi (paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar).
60. Morfemaning ifoda va mazmun jihati.
61. Lug'at va uning turlari. Maxsus filologik lug'atlar.
62. Derivatsiya. So'z yasaliş usullari.
63. Formal va substansial (struktural) sintaksis.
64. Shevalarda so'z turkumlari (ot va sifat so'z turkumlari misolida).
65. Morfema nima? Morfemika birligi masalasi. Leksema va morfema munosabati.
66. Lisoniy munosabatlar sharhi (paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabatlar)
67. Semema va grammatik ma'no munosabati. Valentlik nazariyasi.
68. Qo'llanilish davri va doirasi chegaralangan leksika.
69. Shevalarda tuslanish.
70. Frazologik sinonimiya va frazeologik omonimiya hodisalarini izohlang.
71. Unli va undosh fonemalar paradigmasi.
72. Qo'shma gaplar, ulaming qadimgi turkiy va eski o'zbek tilidagi o'xshash va ulardan farqli tomonlari.
73. Nutqiy so'z birikmasi (SB) haqida tushuncha.
74. Shevalarda tovush tushishi va ortishi hodisalari

10.00.01-«O'zbek tili» ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

a) metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». O'zbekiston NMIU, 2016. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni (1989 yil 21 oktabr; yangi tahriri - 1995 yil 21 dekabr).
3. O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuni (1993 yil 2 sentabr; yangi tahriri - 1995 yil 6 may).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni tasdiqlash haqida»gi 339-sonli qarori (1995 yil 24 avgust).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF- 4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni / «Xalq so'zi» gazetasi. -2016 yil. -14 may.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni / lex.uz/yoos8/4561730

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-sonli «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni / lex.uz/ryoy/5058351

b) ilmiy adabiyotlar:

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - T., 1992.
 2. Abduraxmonov G. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.T., 2009.
 3. Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Teksty i issledovaniya. - M., 1951.
 4. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. - T., 1992.
 5. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - T., 2002.
 6. Nurmonov A., Maxmudov N., Axmedov A., Solixujaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - T., 1992.
 7. Sanakulov U., Nasriddinzoda B. Qadimgi yozuvlar va eski o'zbek alifbosi. - T., 1990.
 8. Tursunov U., Muxtorov J. Raxmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T., 1965, 1990.
 9. Tursunov U., Urinboev B. O'zbek adabiy tili tarixi. - T., 1982.
 10. Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. - T., 1996.
 11. Hojiev A. O'zbek tili so'z yasaliş tizimi. - T., 2007.
 12. Hojiev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari. - T., 2010.
- v) o'zbek tili sohalari bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:**
13. Abdiev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. - T., 2004.
 14. Aliev A., Sodiqov K. O'zbek adabiy tili tarixidan. - T., 1994.
 15. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-3-qismlar. - T., 1997-1999.
 16. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. - T., 1995.
 17. «Davlat tili haqida» (O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni matnlari, qonunosti hujjatlar, qonunni amalga oshirish yo'lidagi muammo va yechimlar) (tuzuvchi - N. Jumaxo'ja.). - T., 2008.
 18. Djamalxanov X. Osnovoy o'zbekskoy grafiki. - T., 1991.
 19. Dusimov Z., Tillaeva M. Toponimika asoslari. - T., 2002.
 20. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. - T., 2009.
 21. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. - T., 2007.
 22. Ishaev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. - T., 1990.

23. Yo'ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. - Samarkand, 2004.
24. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
24. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - T., 2008.
25. Lutfullaeva D.E. Gapni semantik-sintaktik qoliplashtirish muammolari. - T., 2005.
26. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. - T., 1990.
27. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammosi. - T., 1991.
28. Maxmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. - T., 2007, 2009.
29. Miraxmedova Z. O'zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. - T., 2010.
30. Mirtojdiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. - T., 2000.
31. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. - T., 2010.
32. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. - T., 1995.
33. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. - T., 1992.
34. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. - T., 2006.
35. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. - T., 2008.
36. Rustamov T. Sof ko'makchilar. - T., 1991.
45. Umurkulov B. Poetik nutq leksikasi. - T., 1990.
46. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi. - T., 1966.
47. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. T., 2011
48. Yusufov B. Mestoimeniya v staro o'zbekskom yazıke. - T., 1991.
49. O'zbek shevalari leksikasi. - T., 1991.
50. XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi. - T., 1990.
51. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. - T., 1992.
52. Kilihev E, Kilihev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 2002.
53. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili (sodda gap sintaksisi). - T., 2002.